

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
“O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari”
ilmiy-tadqiqot markazi**

**Qo‘lyozma huquqida
UDK: 336.148.004 (575)**

TEMIROV MUXAMMADALI XAMIDOVICH

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIYAVIY NAZORAT
METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 — Moliya, pul muomalasi va kredit

**IQTISODIYOT FANLARI DOKTORI (DSc)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan**

D I S S E R T A T S I Y A

**Ilmiy konsultant: iqtisodiyot fanlari doktori,
professor F.I.Isayev**

Toshkent – 2025 yil

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. MILLIY IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIYAVIY NAZORATNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	14
1.1-§. Moliyaviy nazoratning nazariy asoslari.....	14
1.2-§. Davlat moliyaviy nazoratining metodologik jihatlari.....	25
1.3-§. Davlat moliyaviy nazorati sohasida xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	37
Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	55
II DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING JORIY HOLATI TAHLILI	58
2.1-§. Davlat moliyaviy nazoratining joriy holati tahlili.....	58
2.2-§. Byudjetdan moliyalashtiriladigan muassasalarda davlat moliyaviy nazorati tomonidan olib borilayotgan choralar samaradorligi tahlili.....	77
2.3-§. Davlat moliyaviy nazorati faoliyatiga ichki audit xizmatlari ta'sirini baholash.....	94
Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.....	114
III MOLIYAVIY NAZORAT METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	116
3.1-§. Moliyaviy nazorat metodologiyasini takomillashtirish masalalari.....	116
3.2-§. Moliyaviy nazorat metodologiyasining tashkilot muvaffaqiyati va moliyaviy natijalarga potensial ta'siri.....	130
3.3-§. Tashkilotda javobgarlikni oshirish uchun moliyaviy nazorat funksiyalaridan samarali foydalanish.....	151
Uchinchi bob bo'yicha xulosalar.....	164
IV MOLIYAVIY NAZORAT METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	166
4.1-§. Moliyaviy nazoratni natijadorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish.....	166
4.2-§. Moliyaviy nazoratda qarorlar qabul qilishni yaxshilashda raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi.....	181
4.3-§. Byudjet tashkilotlari moliyaviy nazorat tadbirlari samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili va prognoz ko'rsatkichlarini baholash.....	195
To'rtinchi bob bo'yicha xulosa.....	218
XULOSA	221
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	226
ILOVALAR	241

KIRISH (fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon amaliyotidan ma'lumki, davlat moliyasi mamlakat iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlashda asosiy o'rin tutib, ijtimoiy dasturlar, infratuzilma loyihalari va boshqa strategik muhim tashabbuslarni amalga oshirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bu esa davlat moliyasi, byudjet tizimini rivojlantirish, byudjet daromadlari va xarajatlarini manzilliligini, maqsadliligini va samaradorligini oshirish, shuningdek, ularning natijadorligini ta'minlash maqsadida moliyaviy nazorat tizimini izchil takomillashtirish zaruratini keltirib chiqaradi. Moliyaviy nazorat davlat organlari faoliyatida shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlashning asosiy tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. "Shaffoflik ham samarali boshqaruv, ham fuqarolar ishonchini mustahkamlash uchun muhim ekanligini tan olgan holda, O'zbekiston hukumati amalga oshirilayotgan moliyaviy islohotlarning bir qismi sifatida qat'iy choralar ko'rdi. Jumladan, Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) tomonidan qo'llaniladigan "ma'lumotlarni tarqatishning kengaytirilgan umumiy tizimini" (e-GDDS) joriy etish bo'yicha tavsiyalarini amalga oshirdi. Hozirda davlat moliyasi haqidagi ma'lumotlar milliy statistika agentligining veb-saytida ham, XVJ veb-saytida ham e'lon qilinmoqda"¹. Bu boshqaruvning barcha bo'g'inlarida moliyaviy intizomni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va fuqarolarning davlat institutlariga ishonchini ta'minlashda davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida qayd etish joiz.

Zamonaviy sharoitda jahon mamlakatlarida moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirishga e'tibor kuchayib borayotganligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Bu davlat institutlarining shaffofligi va hisobdorligiga qo'yiladigan talablarning ortib borayotgan global tendensiyalari, shuningdek, byudjet mablag'larining cheklanganligi sharoitida davlat resurslaridan samarali va maqsadli foydalanishni

¹ Ivailo Izvorski. Improving Uzbekistan's public finances: More transparency, better budgeting, and lower taxes. <https://blogs.worldbank.org/en/europeandcentralasia/improving-uzbekistan-public-finances>

ta'minlash zarurati bilan bog'liq. Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, moliyaviy nazoratni takomillashtirishning asosiy jihatlari moliyaviy operatsiyalarni monitoring qilish va tahlil qilishning ilg'or texnologiyalari va vositalarini joriy etish, qonunchilik bazasi va hisobot standartlarini takomillashtirish, shuningdek, moliyaviy nazorat bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarning malakasi va kasbiy mahoratini oshirishdan iborat. Ko'pgina mamlakatlarda jamoatchilik nazorati va moliyaviy nazoratga fuqarolarni jalb qilish mexanizmlari ham joriy etilmoqda, bu esa shaffoflik va hisobdorlikni oshirishga yordam beradi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi moliya tizimida jumladan, davlat moliyasida amalga oshirilayotgan islohotlar byudjet tizimi byudjetlarining barqarorligini, shuningdek, byudjet mablag'larini manzilli va maqsadlilikini, natijadorligini ta'minlash hamda davlat byudjeti xarajatlarning samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Chunki islohotlar davrida davlat tizimining uzluksiz faoliyat ko'rsatishi uchun byudjet barqarorligi suv bilan havodek zarur². Bu nafaqat moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi, balki aholi turmush darajasini oshirish, ta'lim va sog'liqni saqlashni rivojlantirish, infratuzilma loyihalarini amalga oshirish kabi strategik maqsadlarga erishishga ham xizmat qiladi. Bunday sharoitda davlat moliyaviy nazorati metodologiyasini takomillashtirish zarurati yanada dolzarb ahamiyat kasb etib, mazkur sohani nazariy, uslubiy va huquqiy asoslarini takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda davlat moliyasi ustidan samarali nazoratni ta'minlash maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 1-iyuldagi O'RQ–546-son “O'zbekiston Respublikasining Hisob palatasi to'g'risida”gi, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi O'RQ–684-son “Davlat xaridlari to'g'risida”gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-avgustdagi PF-6300-son “Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi, 2022-yil 21-dekabrda PF-269-son

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 22.12.2017y. <http://www.ach.gov.uz/uz/lists/view/54>.

“Yangi O‘zbekiston ma‘muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 18-martdagi PQ-2847-son “Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 21-avgustdagi PQ-3231-son “Ta‘lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi, 2022-yil 14-fevraldagi PQ-128-son “O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi. Moliyaviy nazorat metodologiyasini takomillashtirishga oid ilmiy-amaliy tadqiqotlar xalqaro tashkilotlar, ilmiy markazlari, oliy ta‘lim muassasalari tomonidan amalga oshirilmoqda, jumladan, Jahon banki (World Bank), Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (IMF), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), Yevropa hisob palatasi (ECA), Garvard universiteti (Harvard University), Stenford universiteti (Stanford university), London iqtisodiyot maktabi (London school of economics), Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi (IFAC), Ichki auditorlar instituti (IIA), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Bank va moliya akademiyasi tomonidan olib borilmoqda.

Xalqaro darajada moliyaviy nazorat metodologiyasini takomillashtirish borasida olib borilgan ilmiy izlanishlar yakuni sifatida quyidagi ilmiy natijalar olingan, jumladan: Davlat moliyasini boshqarish, shu jumladan moliyaviy nazorat sohasida qo‘llab-quvvatlash va tadqiqotlarni o‘tkazish va institutsional tuzilmalarni mustahkamlash va moliyaviy shaffoflikni yaxshilash uchun metodologiyalar ishlab

chiqilgan (World Bank); Global darajada moliyaviy nazorat sohasida tadqiqot va ishlanmalar olib borilgan, moliyaviy siyosat, soliq ma'muriyati va davlat moliyasini boshqarish masalalari bo'yicha mamlakatlarga maslahat va ekspertiza berilgan (IMF); Davlat moliyasini boshqarish, soliq nazorati va davlat xarajatlari samaradorligini oshirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan hamda turli mamlakatlarda moliyaviy nazoratni yaxshilash uchun standartlar va tavsiyalar ishlab chiqilgan va nashr etilgan (OECD); Yevropa Ittifoqining moliyaviy operatsiyalarini nazorat qilish va tekshirish, moliyaviy nazoratni yaxshilash va moliya sektorida shaffoflik va javobgarlikni oshirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan (ECA); Moliyaviy nazorat, davlat moliyasini boshqarish sohasida tadqiqotlar olib bormoqda, moliyaviy nazorat samaradorligi va sifatini baholashning yangi metodologiyasi va vositalari ishlab chiqilgan (Harvard University), (Stanford university), (London school of economics); butun dunyo bo'ylab moliyaviy nazorat va ichki audit amaliyotini yaxshilash uchun standartlar va yo'riqnomalarni ishlab chiqmoqdalar (IFAC) va (IIA).

Hozirgi kunda jahonda, oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari, nufuzli xalqaro moliya institutlari va nazorat organlari tomonidan moliyaviy nazoratning nazariy-metodologik, uslubiy va iqtisodiy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha qator ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: moliyaviy nazoratda raqamlashtirish va fintex, xalqaro hamkorlik va standartlashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashish va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash, moliyaviy tizimlar barqarorligini ta'minlash va inqirozlarning oldini olish maqsadida moliyaviy risklarni baholash va boshqarish vositalari va yondashuvlarini ishlab chiqish, moliyaviy vositalar, texnologiyalar va bozor muhitidagi o'zgarishlarni hisobga oladigan tartibga solish va nazoratning yangi modellarini ishlab chiqish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Moliyaviy nazorat metodologiyasini takomillashtirishning nazariy-uslubiy masalalarini o'rgangan xorijlik iqtisodchi olimlar qatoriga N.Betti, G.Sarens, S.Gupta, M.Keen, A.Shah, G.Verdier, R.Huseynov, R.Konyng, K.M.Meiss, J.Mozer, MDH mamlakatlari

olimlaridan V.V.Vasilyeva, K.Ye.Zaxarov, R.V.Kolesov, A.V.Yurchenko, V.A.Spasovski, K.L.Golovin, A.L.Kolesnik, D.V.Shepelevani³ kiritish mumkin.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan moliyaviy nazoratning rivojlantirish istiqbollari va uslubiy ta’minotiga oid ilmiy tadqiqotlar S.Mehmonov, B.Mahmudov, M.To‘laxo‘jayeva, B.Turabov, N.Xakimov, Sh.Azizov va boshqalar tomonidan olib borilgan⁴.

B.T. Turabov ilmiy ishining metodologiyasi auditorlik yondashuviga asoslangan bo‘lib, u uchta asosiy audit turlarini – moliyaviy audit, muvofiqlik auditi va samaradorlik auditini joriy etishni nazarda tutadi. Bu yondashuv buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini ta’minlash, moliyaviy resurslardan maqsadli foydalanishni baholash va moliyaviy operatsiyalarning qonuniyligini oshirishga qaratilgan. N.N.Xakimovning ilmiy ishi esa davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirishda axborot texnologiyalarini joriy etish, iqtisodiy tahlil mezonlarini takomillashtirish va tizimli yondashuv asosida qonunbuzarliklarni oldini olishga qaratilgan metodologiyaga asoslanadi.

³ Betti N. and Sarens G. Understanding the internal audit function in a digitalised business environment. *Journal of Accounting & Organizational Change*. -2021. 17(2):197–216. DOI: 10.1108; Gupta S., Keen M., Shah A., Verdier G. (2017) Digital revolutions in public finance. *International Monetary Fund*. Retrieved from: <http://pinguet.free.fr/digitalrevo.pdf>; Huseynov R. The role of financial control over increasing the efficiency of using budget funds. 37th International Scientific Conference on Economic and Social Development – "Socio Economic Problems of Sustainable Development" — Baku, 14-15 February. 2019. P. 238; Konyng R. Public Internal Financial Control (in Russ.). 2007, p. 124-135; Meiss K.M., Naumik-Gladka K., Krivtsova T, Liadova Yu. Improvement of public financial control in the context of ensuring financial security of the state/*Economic Annals-XXI*. 2017, 168 (11-12), p. 63-68; Mozer J. The contribution of the WOFK in good governance and sustainable development through the promotion of transparency and accountability in public administration. *EUROSAI (EUROSAI)*, 21, 2015, p.102-105 (in Russ.); Васильева М.В. (2009) Становление и особенности развития контрольно-счетных органов в Российской Федерации: монография. Волгоград: Изд-во Волгоградского гос. ун-та. 347 с.; Захаров К.Е. (2010) Государственный финансовый контроль: подходы к оценке эффективности // *Финансовый журнал*. – №2. – С.61-72.; Колесов Р.В., Юрченко А.В. Система государственного финансового контроля РФ: проблемы и перспективы: Монография. – Ярославль: ЯФ МФЮА, 2013, -100 с.; Спасовски В.А. Внебюджетные фонды Российской Федерации: Монография. М.: АПК и программное обеспечение.2014. С. 36; Головин К.Л. (2007) Правовые основы бюджетного контроля в РФ и ФРГ: сравнительно-правовое исследование. Автореф. дис. канд. юрид. наук. М.: МГИМО МИД России.; Колесник А.Л. (2018) Организация и методика проведения внутреннего аудита распорядителями средств федерального бюджета. Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата экономических наук. -М, -28с.; Шепелева Д.В. (2016) Казенное предприятие как субъект финансового права: автореф. дис.... канд. юрид. наук: 12.00.04/Москва, -С.3

⁴ Меҳмонов С.У., Махмудов Б. Бюджет ташкилотларида давлат молиявий назоратни ташкил этиш. *Scientific progress*, 2022. 3 (4), 1215-1218.; Турабов Б. Ўзбекистон Республикасида давлат молиявий назоратини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. –Т.: 2023, 66 б. Тулаходжаева М. (1998) Организация и методы финансового контроля в Республике Узбекистан. Диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук / Москва.; Хакимов Н.Н. Таълим тизимида давлат молиявий назорати самарадорлигини таъминлаш. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. №4, 2021.51-61 б.; Азизов Ш.У. Соҳада молиявий назоратнинг янги шакли ёки божхона аудитини ташкил этишнинг назарий, амалий ва ҳуқуқий муаммолари. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 6, 2016 йил. 1-12 б.

Ushbu ilmiy ishlarda moliyaviy nazorat, xususan davlat moliyaviy nazoratiga oid masalalar o'rganilgan bo'lsa-da, moliyaviy nazorat metodologiyasi kompleks tarzda tadqiq etilmagan. Shu boisdan moliyaviy nazorat metodologiyasini takomillashtirish yuzasidan ilmiy takliflar ishlab chiqish lozim.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazining "Kambag'allikni kamaytirish va aholi turmush farovonligini oshirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar ishlab chiqish" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlariga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Moliyaviy nazorat metodologiyasini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish va uning ta'sirchanligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

davlat mablag'laridan foydalanuvchi muassasalarda moliyaviy nazorat organlari tomonidan olib borilayotgan choralarni tahlil qilish asosida ularni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

davlat moliyaviy nazorati faoliyatiga vazirlik va idoralarda tashkil etilgan ichki audit xizmatlari ta'sirini baholash bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqish;

moliyaviy nazorat metodologiyasining tashkilot muvaffaqiyati va moliyaviy natijalarga potensial ta'sirini aniqlash yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

byudjet mablag'laridan foydalanuvchi tashkilot va muassasalarda javobgarlikni oshirish uchun moliyaviy nazorat funksiyalaridan samarali foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

moliyaviy nazorat samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari aniqlash va ularni qo'llash yuzasidan takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida davlat byudjet tashkilotlari faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmetini moliyaviy nazorat metodologiyasini takomillashtirishning nazariy, amaliy hamda uslubiy asoslarini takomillashtirish jarayonida sodir bo‘ladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda dialektik yondashuv, tizimli tahlil, analiz, sintez, induksiya, deduksiya, segmentli tahlil, reyting baholash, statistika, qiyosiy tahlil va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “moliyaviy nazorat” tushunchasining iqtisodiy mazmuni mamlakat va alohida hududlarni samarali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida davlat va mahalliy davlat hokimiyati organlari mablag‘larini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish sohasidagi harakatlarning qonuniyligi va maqsadga muvofiqligini nazorat qilish jarayoni moliyaviy nazorat va davlat moliyaviy nazorati o‘rtasidagi nisbatni aniqlashtirish hamda davlat va moliyaviy-moddiy resurslarning harakati sifatidagi davlat moliyaviy nazorati tushunchasining hal qiluvchi omili nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

byudjet mablag‘lari hisobidan amalga oshirilgan qurilish obyektlarida nazorat o‘lchovining qiymat jihatidan chegarasi ($Ch_{n.o.} = 10 \text{ mlrd. so‘m}$) miqdori tavsiya etilib, nazorat o‘lchovini ushbu chegaradan past ($Ch_{n.o.} < 10 \text{ mlrd. so‘m}$) obyektlarda qurilishda nazorat o‘lchovini o‘tkazish huquqiga ega bo‘lgan vakolatli tashkilotlarni jalb qilgan holda, ushbu chegaradan yuqori ($Ch_{n.o.} > 10 \text{ mlrd. so‘m}$) obyektlarda Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasining qurilish obyektlarida nazorat o‘lchovini amalga oshirish boshqarmasi tomonidan amalga oshirish orqali moliyaviy nazoratning ta’sirchanligini oshirish asoslangan;

byudjet mablag‘laridan foydalanish bilan bog‘liq qonunbuzilish holatlari bo‘yicha jamoatchilik nazoratini kuchaytirishda fuqarolar tomonidan tegishli axborotning maxsus elektron platforma orqali taqdim etilishini pul mukofotlari yordamida rag‘batlantirish asosida moliyaviy nazoratning ochiqligi va samaradorligini oshirish taklifi asoslangan;

qonunbuzarlik holatlari ehtimoli yuqori yoki potensial xavf mavjud obyektlarni aniqlashda dastlabki kameral tekshiruvlarini o‘tkazish orqali auditorlar tomonidan

resurslarga ustuvor ahamiyat berilishini ta'minlash, to'g'ridan-to'g'ri kuzatish va o'zaro ta'sir zarur bo'lgan yuqori xavfli hududlarga mobil tekshiruvlarni yo'naltirishga ko'ra kameral (Tk) va sayyor (Ts) tekshiruvlarning maqbul kombinatsiyasi ($Tk=0,7-0,75$; $Ts=0,25-0,3$) orqali moliyaviy nazorat samaradorligini oshirish taklif etilgan;

O'zbekistonda byudjet tashkilotlarida o'tkaziladigan moliyaviy nazorat tadbirlari samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning ekonometrik modeli asosida 2027 yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

davlat moliyasi sohasida huquqbuzarliklarning asosiy sabablarini aniqlash, ularning tuzilishi va mohiyatini yanada batafsil tahlil qilish, xodimlarning malakasini oshirishga alohida e'tibor qaratgan holda ichki audit tizimini takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar berilgan;

kameral va sayyor tekshiruvlarni o'tkazish orqali nazorat faoliyatida shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlashga doir amaliy takliflar berilgan;

boshqaruvda shaffoflik va ochiqlikni oshirishni ta'minlash uchun nazorat tadbirlari natijalari bo'yicha aniqlangan moliyaviy huquqbuzarliklar va ularning bartaraf etilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni Hisob palatasi veb-saytiga joylashtirilishi bo'yicha amaliy takliflar berilgan;

byudjet tashkilotlarida ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarning to'g'ri hisoblanishini nazorat qilish va ixtisoslashtirilgan avtomatlashtirilgan dasturiy mahsulotlardan foydalangan holda doimiy monitoring o'tkazish orqali ortiqcha to'lovlarning oldini olishga oid amaliy takliflar berilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, normativ-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlarining rasmiyligi, moliyaviy nazoratga oid ma'lumotlarning hisobot manbalaridan olinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning normativ-huquqiy hujjatlar hamda mutasaddi tashkilotlar (O'zbekiston Respublikasi

Iqtisodiyot va moliya vazirligi) tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati moliyaviy nazoratga oid nazariy-metodologik maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalardan moliyaviy nazoratni amalga oshirish, moliyaviy nazoratni takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Moliyaviy nazorat metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "moliyaviy nazorat" tushunchasining iqtisodiy mazmunini mamlakat va alohida hududlarni samarali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida davlat va mahalliy davlat hokimiyati organlari mablag'larini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish sohasidagi harakatlarning qonuniyligi va maqsadga muvofiqligini nazorat qilish jarayoni moliyaviy nazorat va davlat moliyaviy nazorati o'rtasidagi nisbatni aniqlashtirish hamda davlat va moliyaviy-moddiy resurslarning harakati sifatidagi davlat moliyaviy nazorati tushunchasining hal qiluvchi omili nuqtai nazaridan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Moliya va soliqlar" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 13 maydagi 166-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda moliyaviy nazorat va davlat moliyaviy nazorati o'rtasidagi nisbatni aniqlashtirish hamda davlat va moliyaviy-moddiy resurslarning harakati sifatidagi davlat moliyaviy nazorati tushunchasining hal qiluvchi omili nuqtai nazaridan takomillashtirilgan "moliyaviy nazorat" tushunchasining iqtisodiy mazmuni yuzasidan nazariy bilimlarni yanada kengaytirish imkoni yaratilgan;

byudjet mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan qurilish obyektlarida nazorat o'lchovining qiymat jihatidan chegarasi ($Ch_{n.o.} = 10 \text{ mlrd. so'm}$) miqdori tavsiya

etilib, nazorat o'lovini ushbu chegaradan past ($Ch_{n.o.} < 10 \text{ mlrd. so'm}$) obyektlarda qurilishda nazorat o'lovini o'tkazish huquqiga ega bo'lgan vakolatli tashkilotlarni jalb qilgan holda, ushbu chegaradan yuqori ($Ch_{n.o.} > 10 \text{ mlrd. so'm}$) obyektlarda Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasining qurilish obyektlarida nazorat o'lovini amalga oshirish boshqarmasi tomonidan amalga oshirish orqali moliyaviy nazoratning ta'sirchanligini oshirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-fevraldagi PQ-128-son "O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarorida inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 25-sentyabrdagi 05/33-4-19949-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida byudjet mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan qurilish obyektlarida nazorat o'lovining qiymat jihatidan chegarasidan kelib chiqqan holda amalga oshirish orqali moliyaviy nazoratning ta'sirchanligini oshirish imkoni yaratilgan;

byudjet mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq qonunbuzilish holatlari bo'yicha jamoatchilik nazoratini kuchaytirishda fuqarolar tomonidan tegishli axborotning maxsus elektron platforma orqali taqdim etilishini pul mukofotlari yordamida rag'batlantirish asosida moliyaviy nazoratning ochiqligi va samaradorligini oshirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-fevraldagi PQ-128-son qaroriga 1-ilova "2022-yilda Davlat byudjeti xarajatlarining samaradorligini oshirish hamda moliyaviy nazorat faoliyatini takomillashtirish bo'yicha yo'l xaritasi"da inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 25-sentyabrdagi 05/33-4-19949-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida byudjet mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq qonunbuzilish holatlari bo'yicha jamoatchilik nazoratini kuchaytirish imkoni yaratilgan;

qonunbuzarlik holatlari ehtimoli yuqori yoki potensial xavf mavjud obyektlarni aniqlashda dastlabki kameral tekshiruvlarini o'tkazish orqali auditorlar tomonidan resurslarga ustuvor ahamiyat berilishini ta'minlash, to'g'ridan-to'g'ri kuzatish va

o‘zaro ta’sir zarur bo‘lgan yuqori xavfli hududlarga mobil tekshiruvlarni yo‘naltirishga ko‘ra kameral (T_k) va sayyor (T_s) tekshiruvlarning maqbul kombinatsiyasi ($T_k=0,7-0,75$; $T_s=0,25-0,3$) orqali moliyaviy nazorat samaradorligini oshirish taklifi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 17-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi hisob palatasining faoliyatini yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-856-son Qonunida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 25-sentyabrdagi 05/33-4-19949-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida yo‘l qo‘yilgan xatolar, buzilishlar yoki nomuvofiqliklarni yaxshiroq aniqlash imkoni paydo bo‘lib, bu esa tashkilotda moliyaviy va ma’muriy boshqaruv sifatini oshirishga olib kelgan;

O‘zbekistonda byudjet tashkilotlarida o‘tkaziladigan moliyaviy nazorat tadbirlari samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning ekonometrik modeli asosida 2027-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlaridan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 25-sentyabrdagi 05/33-4-19949-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida O‘zbekiston uzoq muddatli istiqbolda byudjet tashkilotlarida o‘tkaziladigan moliyaviy nazorat tadbirlari samaradorligi hamda asosiy faoliyat parametrlari o‘rtasidagi o‘zaro muvofiqlikni ta’minlash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 10 ta, jumladan 5 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 25 ta ilmiy ish, shu jumladan, 1 ta ilmiy monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 14 ta, shundan, nufuzli xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 224 betni tashkil etadi.